Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-sentabr 2026-yil

RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA BO`LAJAK MATEMATIKA O`QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Gadoymurodova Nozigul Erkin qizi
Nizomiy nomidagi TDPU
Elektron pochta: gadoymurodovanozigul@.gmail.com

Annotasiya Raqamli va texnologik transformatsiyasi sharoitida matematika ta’limining mazmuni uning tashkil etish shakllariga nisbatan zamonaviy talablar kuchayib bormoqda. Ayni paytda zamonaviy matematika o‘qituvchisi nafaqat fundamental matematik bilimlar va an’anaviy pedagogik usullarni egallagan bo‘lishi, balki yuqori darajadagi kasbiy-metodik kompetentlikka, STEM-ta’lim integratsiyasini qo‘llash ko‘nikmasiga va ilmiy salohiyatiga ega bo‘lishi zarur. Shuningdek, oliy pedagogik ta’lim tizimida yosh matematika o‘qituvchilarini shakllantirishning konseptual va metodik modelini takomillashtirish zarur bo‘lgan ilmiy-pedagogik muammo sanaladi.

Tadqiqot maqsadi

Oliy ta’lim dargohlarida matematika o‘qituvchilarini tayyorlashda fundamental-matematik va ilmiy-metodik tayyorgarlikning integratsiyalashgan modelini ishlab chiqish hamda uning bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini oshirishdagi samaradorligini asoslashdan iborat.

Metodologiya

Tadqiqot jarayonida kompetentlik, tizimli va faoliyatli yondashuvlar, pedagogik-psixologik diagnostika, ilmiy-metodik manbalarning komparativ tahlili hamda pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi uchta tarkibiy komponent bo‘yicha baholandi:

- **Fundamental-matematik:** Nazariy tayyorgarlik va abstrakt fikrlash darajasi.

➢ **Metodik-texnologik:** Dinamik matematik dasturlar (GeoGebra, Wolfram Alpha) va interaktiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasi.

➢ **Ilmiy-tadqiqotchilik:** Matematik modellashtirish hamda pedagogik refleksiyani dars jarayoniga tatbiq etish salohiyati.

Natijalar va muhokama

➢ Tajriba-sinov ishlari natijasida bo‘lajak matematika o‘qituvchilarini tayyorlashda fundamental matematika va uning o‘qitish metodikasini uzviy integratsiya qilish talabalarning refleksiv va metodik modellashtirish ko‘nikmalarini 26.4% ga oshirgani tasdiqlandi.

➢ Matematik tushunchalarni vizualizatsiya qilish va masalalarni amaliy-tadqiqotchilik yo‘nalishida shakllantirish bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik moslashuvchanligini hamda raqamli-pedagogik ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirgani aniqlandi.

Xulosa

Zamonaviy matematika o`qituvchisini shakllantirishda fundamental bilimlar, raqamli didaktika va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining uzviyligiga asoslangan model eng yuqori samaradorlikni namoyon etadi. Tadqiqot natijalaridan oliy pedagogik ta’lim muassasalarida matematika o‘qitish metodikasi fanlari dasturlarini takomillashtirishda hamda pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida keng foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Matematika ta’limi sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PQ-4708-son). – Toshkent, 2020-yil 7-may.

2. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta'limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2004. – 128 b.

3. Abduqodirov A.A., Toshboyev A. Matematika o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 180 b.

4. Artigue, M. (2016). Connecting theory and practice in mathematics education. In Proceedings of the 13th International Congress on Mathematical Education (pp. 603-610). Springer, Cham.

5. Hohenwarter, M., & Preiner, J. (2007). Dynamic mathematics with GeoGebra for teaching and learning mathematics. EuroMathPub, 11(1), 3-11.